


XIII. DEMOGRAFIK HOLAT

Andijon viloyati 1941 yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,3 ming kv. km. Chegara uzunligi 617,1 km. Andijon viloyati Farg'ona viloyati bilan (101,2 km), Namangan viloyati bilan (106,6 km), Qirg'iziston Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 748 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Andijon shahri bo'lib, aholisi 453,8 ming kishi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil 1- iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 215,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 27,3 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1 679,9 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1 535,5 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi.


Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi



Shahar va qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulishi, % da




Erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulishi, % da



Andijon viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2021- yil 1- iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, kishi				
	Jami	shu jumladan:		shu jumladan:	
		shahar	qishloq	erkaklar	ayollar
Viloyat bo'yicha:	3 215 392	1 679 908	1 535 484	1 628 127	1 587 265
shaharlar:					
Andijon	453 822	453 822	-	228 452	225 370
Xonobod	43 483	36 600	6 883	21 725	21 758
tumanlar:					
Oltinko'l	182 283	95 914	86 369	92 132	90 151
Andijon	270 024	206 823	63 201	134 965	135 059
Baliqchi	204 769	69 285	135 484	104 372	100 397
Bo'ston	73 728	25 952	47 776	37 256	36 472
Buloqboshi	145 566	70 504	75 062	74 050	71 516
Jalaquduq	189 354	79 231	110 123	96 489	92 865
Izboskan	242 915	78 049	164 866	123 502	119 413
Ulug'nor	60 944	6 263	54 681	30 422	30 522
Qo'rg'ontepa	219 852	93 741	126 111	110 872	108 980
Asaka	335 766	103 041	232 725	169 757	166 009
Marhamat	176 519	139 385	37 134	89 988	86 531
Shahrixon	306 386	101 528	204 858	156 379	150 007
Paxtaobod	197 299	72 152	125 147	100 167	97 132
Xo'jaobod	112 682	47 618	65 064	57 599	55 083

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2021- yil 1- iyul holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni va o'sish sur'ati

	2020- yil 1- iyul holatiga (kishi)	2021- yil 1- iyul holatiga (kishi)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Viloyat bo'yicha:	3 153 134	3 215 392	102,0
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	445 713	453 822	101,8
Xonobod	42 801	43 483	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	178 244	182 283	102,3
Andijon	264 139	270 024	102,2
Baliqchi	200 972	204 769	101,9
Bo'ston	72 261	73 728	102,0
Buloqboshi	142 842	145 566	101,9
Jalaquduq	186 046	189 354	101,8
Izboskan	238 470	242 915	101,9
Ulug'nor	59 788	60 944	101,9
Qo'rg'ontepa	216 322	219 852	101,6
Asaka	328 594	335 766	102,2
Marhamat	173 269	176 519	101,9
Shahrixon	300 040	306 386	102,1
Paxtaobod	193 270	197 299	102,1
Xo'jaobod	110 363	112 682	102,1

Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati
(yanvar-iyun holatiga)

	<i>Kishi</i>			<i>har 1000 kishiga</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
Tug'ilganlar	34 617	36 606	1 989	21,2	23,1
O'lganlar	7 376	7 636	260	4,7	4,8
Nikohlar	6 718	9 534	2 816	4,3	6,0
Ajralishlar	1 498	1 971	473	1,0	1,2
Ko'chib kelganlar	2 398	3 680	1 282	1,5	2,3
Ko'chib ketganlar	4 188	5 362	1 174	2,7	3,4




Tug‘ilish. 2021- yilning yanvar – iyun oylarida tug‘ilganlar soni 36 606 kishini tashkil qildi va 2020- yilning shu davriga (34 617 kishi) nisbatan 1 989 taga ko‘paydi, shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 23,1 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan 1,9 promillega ortdi.




Viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni hamda koeffitsienti
2021- yil yanvar – iyun davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)

Tirik tug‘ilganlar soni, kishi



Tug‘ilish koeffitsienti
(1000 aholiga nisbatan, promille)





Tug‘ilganlar sonining jinsi va tug‘ilgan joyi bo‘yicha taqsimlanishi
(2021- yil yanvar-iyun holatiga, kishi)

	<i>Jami</i>	<i>Jinsi bo‘yicha</i>		<i>Joyi bo‘yicha</i>	
		<i>o‘g‘il bolalar</i>	<i>qiz bolalar</i>	<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
Viloyat bo‘yicha:	36 606	18 918	17 688	19 273	17 333
<i>shaharlar:</i>					
Andijon sh.	5 536	2 881	2 655	5 536	-
Xonobod sh.	388	203	185	388	-
<i>tumanlar:</i>					
Andijon	3 293	1 730	1 563	2 629	664
Asaka	4201	2 165	2 036	1 497	2 704
Baliqchi	2 261	1 136	1 125	605	1 656
Bo‘ston	814	422	392	353	461
Buloqboshi	1 446	735	711	539	907
Jalaquduq	1 971	1 049	922	861	1 110
Izboskan	2 613	1 362	1 251	825	1 788
Ulug‘nor	655	323	332	88	567
Marhamat	1 986	1 035	951	1 461	525
Oltinko‘l	2 112	1 075	1 037	1 118	994
Paxtaobod	2 265	1 134	1 131	776	1 489
Xo‘jaobod	1 292	669	623	628	664
Shahrixon	3 602	1 890	1 712	1 118	2 484
Qo‘rg‘ontepa	2 171	1 109	1 062	851	1 320

2021- yil yanvar – iyun davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 18 918 nafarni yoki jamidan 51,7 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 17 688 nafar va jamidan 48,3 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 19 273 nafarni (jamidan 52,6 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 17 333 nafarni (jamidan 47,4 %) tashkil etdi.

Tug'ilgan bolalarning onasining yoshi bo'yicha taqsimlanishi

Ona yoshi bo'yicha	Tug'ilgan bolalar soni	shundan	
		o'g'il bolalar	qiz bolalar
Jami	36 606	18 934	17 672
<i>shu jumladan:</i>			
0-17 yosh	49	24	25
18 yosh	230	108	122
19-20 yosh	3 142	1 632	1 510
21-25 yosh	13 920	7 198	6 722
26-30 yosh	11 571	6 019	5 552
31-40 yosh	7 566	3 886	3 680
41-50 yosh	128	67	61

Onanning yoshi bo'yicha eng ko'p tug'ilish holati onaning 21-25 yosh (13 920 ta, jamidan 38,0 foiz) va 26-30 yosh (11 571 ta, 31,6 foiz) davriga to'g'ri kelmoqda.

Vafot etganlar. 2021- yil yanvar – iyun holatiga 7,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ortdi (2020- yilda 4,7 promille bo'lgan).

Vafot etganlar soni va o'lim koeffitsienti (yanvar-iyun)

	Vafot etganlar, kishi		O'lim koeffitsienti, promille	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Viloyat bo'yicha:	7 376	7 636	4,7	4,8
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	1 200	1 172	5,4	5,2
Xonobod	81	107	3,8	5,0
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	439	417	5,0	4,6
Andijon	670	680	5,1	5,1
Baliqchi	455	470	4,6	4,6
Bo'ston	163	162	4,6	4,5
Buloqboshi	355	324	5,0	4,5
Jalaquduq	426	449	4,6	4,8
Izboskan	570	581	4,8	4,8
Ulug'nor	130	136	4,4	4,5
Qo'rg'ontepa	434	511	4,0	4,7
Asaka	782	799	4,8	4,8
Marhamat	433	416	5,0	4,8
Shahrixon	611	669	4,1	4,4
Paxtaobod	375	454	3,9	4,7
Xo'jaobod	252	289	4,6	5,2

O'lim koeffitsiyentining 2020- yilning mos davriga nisbatan eng ko'p o'sishi Xonobod shahrida (3,8 promilledan 5,0 promillega), Qo'rg'ontepa tumanida (4,0 promilledan 4,7 promillega), Paxtaobod tumanida (3,9 promilledan 4,7 promillega) kuzatildi va aksincha Oltinko'l (5,0 promilledan 4,6 promillega), Buloqboshi tumanlarida (5,0 promilledan 4,5 promillega) sezilarli kamayish kuzatildi.

O'lganlarni o'lim sabablari bo'yicha taqsimoti (yanvar-iyun)

	Vafot etganlar, kishi	
	2020- yil	2021- yil
Jami vafot etganlar	7 376	7 636
<i>shu jumladan :</i>		
Yuqumli va parazitlar kasalliklar	101	120
O'smalar	657	691
Qon aylanish tizimi kasalliklari	4 880	4 973
Nafas olish organlari kasalliklari	264	271
Ovqat hazm qilish organlari kasalliklari	310	357
Boshqa kasalliklari	897	893
Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlar	267	331

2021- yilning yanvar – iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 65,1 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,1 foizi o'smalardan, 4,3 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,7 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,6 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,7 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.



O'lganlarning yoshi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi, kishi
(yanvar – iyun)

Yoshi	jami o'lganlar	shundan:	
		erkaklar	ayollar
Jami	7 636	4 132	3 504
<i>shu jumladan:</i>			
0-1 yosh	521	305	216
2-5 yosh	49	28	21
6-10 yosh	41	29	12
11-15 yosh	58	41	17
16-17 yosh	22	12	10
18-30 yosh	212	140	72
31-49 yosh	769	463	306
50-59 yosh	1 103	658	445
60 yosh va undan yuqori	4 861	2456	2 405

Joriy yilning yanvar-iyun davrida o'lganlarning 56,1 foizi (4 132 kishi) erkaklar, 43,9 foizi (3 504 kishi) ayollar bo'lgan. Yosh jihatidan eng ko'p o'lim ulushi 0-1 yosh 521 ta (jamidan 6,8 foiz), 31-49 yosh 769 ta (jamidan 10,1 foiz), 50-59 yosh 1 103 ta (jamidan 14,5 foiz) va 60 yosh va undan yuqori yoshdagilarga 4 861 ta (jamidan 64,6 foiz) tog'ri kelgan.


Nikohlar va ajralishlar. 2021- yilning yanvar – iyun oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni 9 534 ta (o'tgan yilning mos davrida 6 718 ta), ajrimlar soni 1 971 ta (o'tgan yilda 1 498 ta)ga teng bo'ldi. Qayd etilgan nikoh ko'rsatkichi 1 000 aholiga nisbatan 6,0 promilleni (2020- yilning tegishli davrida 4,3 promille) va ajrim ko'rsatkichi 1,2 promilleni (2020- yilning tegishli davrida 1,0 promille) tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-iyun oylarida)

(birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>
Viloyat bo'yicha:	6 718	9 534	1 498	1 971
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	901	1 526	232	377
Xonobod	81	121	30	38
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	347	535	68	98
Andijon	478	812	145	171
Baliqchi	422	662	69	104
Bo'ston	123	189	40	37
Buloqboshi	331	417	81	93
Jalaquduq	399	578	99	111
Izboskan	589	757	103	165
Ulug'nor	80	134	24	44
Qo'rg'ontepa	466	563	96	120
Asaka	688	919	167	204
Marhamat	489	583	81	97
Shahrixon	561	804	112	143
Paxtaobod	532	597	90	94
Xo'jaobod	231	337	61	75


Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar soni va nikohlar koeffitsienti
2020- yil yanvar-iyun holatiga (har 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikoh tuzish koeffitsiyentining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Ulug'nor tumanida (1,8 promillega), Andijon shahri (2,7 promillega), Oltinko'l tumanida (2,1 promillega) kuzatildi.

Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayish Paxtaobod tumani (0,5 promillega), Marxamat tumani (1,0 promillega), Buloqboshi tumanida (1,1 promillega) kuzatildi.


Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlarning nikohlanuvchilarning yoshi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi
 2021- yil yanvar – iyun holatiga



Nikoh tuzish davrida erkaklarning katta ulushi asosan 21-30 yosh chegarasida (7 625 ta, jamiga nisbatan 80,0 foiz), ayollar esa 18-25 yosh oralig'ida (7 668 ta, jamiga nisbatan 80,4 foiz) ekanlini ko'rish mumkin.

Ushbu davrda erkaklarning nikohga kirish o'rtacha yoshi 27,9 yoshni, ayollarniki esa 22,7 yoshni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni
 (2021- yilning yanvar – iyun oylarida, birlik)






Ajrim koeffitsiyentida aksariyat tumanlarda avvalgi yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sish Ulug'nor tumani (0,7 promillega), Andijon shahri (0,6 promillega) ro'y berdi. Eng ko'p kamayish Bo'ston tumanida (o'tgan yilga nisbatan -0,1 promillega) kuzatildi.

Ajrim bo'lgan oilalardagi 18 yoshgacha bo'lgan bolalari soni, kishi
(2021- yilning yanvar – iyun oylarida)

	<i>Jami ajrimlar soni, birlik</i>	<i>shundan:</i>
		<i>oilalardagi 18 yoshgacha b o'lgan bolalar</i>
Viloyat bo'yicha:	1 971	635
<i>shaharlar:</i>		
Andijon	372	30
Xonobod	40	15
<i>tumanlar:</i>		
Oltinko'l	99	26
Andijon	172	46
Baliqchi	103	25
Bo'ston	37	9
Buloqboshi	91	45
Jalaquduq	109	51
Izboskan	166	70
Ulug'nor	44	15
Qo'rg'ontepa	122	49
Asaka	206	84
Marhamat	97	38
Shahrixon	144	58
Paxtaobod	95	42
Xo'jaobod	74	32

Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti

(2021- yil yanvar – iyun davri, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar – iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 680 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 5 362 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 682 kishini tashkil etgan, 2020- yilning mos davrida minus 1 790 kishi bo'lgan.

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(yanvar – iyun)

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil	2020- yil	2021- yil
Viloyat bo'yicha:	2 398	3 680	4 188	5 362	-1 790	-1682
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	618	866	887	1 403	-269	-537
Xonobod	82	125	81	87	1	38
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	210	362	217	302	-7	60
Andijon	355	805	443	514	-88	291
Baliqchi	208	158	350	328	-142	-170
Bo'ston	65	97	74	105	-9	-8
Buloqboshi	87	145	157	190	-70	-45
Jalaquduq	27	191	291	306	-264	-115
Izboskan	164	38	225	389	-61	-351
Ulug'nor	68	64	83	122	-15	-58
Qo'rg'ontepa	115	218	285	393	-170	-175
Asaka	152	29	192	265	-40	-236
Marhamat	19	86	213	223	-194	-137
Shahrixon	80	104	332	316	-252	-212
Paxtaobod	27	172	192	213	-165	-41
Xo'jaobod	121	220	166	206	-45	14

Migratsiya yoʻnalishlari boʻyicha aholi harakati

№	Migratsiya turi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	JAMI	3 680	5 362
1	Ichki migratsiya	3 672	5 227
1.1	Viloyatlararo	600	2 155
1.2	Tumanlararo	3 072	3 072
2	Tashqi migratsiya	8	135
2.1	Rossiya Federatsiyasi	3	42
2.2	Ukraina	-	5
2.3	Qozog 'iston Respublikasi	-	23
2.4	Qirg 'iz Respublikasi	4	50
2.5	Tojikiston Respublikasi	1	2
2.6	Turkmaniston Respublikasi	-	1
2.7	Avstriya	-	1
2.8	Xitoy Xalq Respublikasi	-	4
2.9	Koreya respublikasi	-	2
2.10	Lyuksemburg	-	1
2.11	Shveysariya	-	3
2.12	Boshqa davlatlar	-	1

Joriy yilning yanvar-iyun davrida koʻchib kelganlarning aksariyati tumanlararo (3 072 kishi, jamiga nisbatan 83,5 foiz) harakatlandi, koʻchib ketganlar ichida boshqa viloyatlarga koʻchib oʻtganlar uklushi (2 155 kishi, jamiga nisbatan 40,2 foiz) salmoqli boʻldi.

Shuningdek agar xorijdan viloyatimizga 8 kishi koʻchib kelgan boʻlsa, 135 kishi chet davlatlarga koʻchib ketdi.